



UCHTEPA ARXEOLOGIK YODGORLIGI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi


Namangan davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15672510>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatining Norin tumanida joylashgan Uchtepa arxeologik yodgorligining o'rganilishi va uning ahamiyati atroflicha tahlil qilingan. Uchtepa – qadimgi O'rta Osiyo madaniyatlarining rivojlanish jarayonini o'rganishda muhim bo'lgan yodgorliklardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda yodgorlikning aniqlanishi, dastlabki ilmiy tadqiqotlar, qazilma ishlari va zamonaviy arxeologik tahlillar natijalari yoritilgan. Va yana maqolada yodgorlik joylashgan hududning geografik va tarixiy xususiyatlari, uning qadimgi aholi punktlari bilan bog'liqligi, shuningdek, turli davrlarga oid topilmalar asosida shakllangan madaniy qatlamlar haqida ma'lumot berilgan. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda Uchtepa yodgorligi ilk temir davri va undan keyingi bosqichlarga oid bo'lishi mumkinligi haqida ilmiy tahminlar ham mavjud. Arxeologik qazishmalar jarayonida aniqlangan me'moriy qoldiqlar, sopol buyumlar, tangalar va boshqa moddiy madaniyat yodgorliklari yodgorlikning qaysi davrlarga oid ekanligini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Uchtepa yodgorligi O'zbekiston va Markaziy Osiyo tarixiy-madaniy merosidagi o'rni hamda uning keyingi tadqiqotlar uchun ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Uchtepa, angobli sopol idishlar, dasturxon idishlari, xo'jalik idishlari, oshxona idishlari, ibodatxona, xauma.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the Narin district of the Namangan region and its significance. Uchtepa is one of the most important monuments in the study of the development of ancient Central Asian cultures. The study covers the identification of the site, the results of preliminary scientific research, excavations and modern archaeological analyses. The article also provides information about the geographical and historical features of the area where the site is located, its connection with ancient settlements and the cultural layers formed on the basis of finds from different periods. The scientific work conducted by the researchers also contains scientific assumptions that the Uchtepa site may belong to the Early Iron Age and later stages. Architectural remains, ceramic objects, coins and other material cultural monuments discovered during archaeological excavations served as an important source for determining which periods the site belongs to. The place of the Uchtepa





monument in the historical and cultural heritage of Uzbekistan and Central Asia and its significance for further research are analyzed.


Keywords: Uchtepa, ceramic vessels with angolia, tableware, household utensils, kitchen utensils, temple, хаума.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется изучение археологического памятника Учтепа, расположенного в Норинском районе Наманганской области, и его значение. Учтепа – один из важных памятников в изучении процесса развития древних Средней Азиатских культур. В исследовании освещены результаты идентификации памятника, предварительных научных исследований, раскопок и современного археологического анализа. И вновь в статье приводятся сведения о географических и исторических особенностях местности, где расположен памятник, ее связи с древними поселениями, а также о культурных слоях, сформировавшихся на основе находок разных периодов. В научных работах исследователей имеются и научные оценки того, что памятник Учтепа может относиться к раннему железному веку и более поздним этапам. Архитектурные остатки, керамика, монеты и другие памятники материальной культуры, найденные в ходе археологических раскопок, послужили важным источником для определения того, к какой эпохе принадлежит памятник. Анализируется место памятника Учтепа в историко-культурном наследии Узбекистана и Средней Фзии и его значение для дальнейших исследований.

Ключевые слова: Учтепа, керамические сосуды с анголией, посуда, бытовая утварь, кухонная утварь, храм, хаума.

Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyodagi sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib, Sirdaryoning yuqori qismida joylashgan Pomir-Oloy va Tyan-Shan tog' tizmalari bilan o'ralgan. Vodiyning serunum tuprog'i, sersuv daryolari, qulay tabiiy sharoitlari qadimdan insonlarni o'ziga tortib kelgan. Shuning uchun ham Farg'ona qadimiy So'g'd, Baqtriya, Xorazm kabi mustaqil davlat shakllangan.

O'zbekiston hududi qadimiy madaniyatlarga boy bo'lib, uning turli hududlarida arxeologik yodgorliklar keng tarqalgan. Tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyati, xususan, Norin tumani o'ziga xos tarixiy merosga ega bo'lgan hududlardan biridir. Ayniqsa, Norin tumanidagi Uchtepa arxeologik yodgorligi mintaqaning eng qadimgi aholi manzillaridan biri bo'lib, uning o'rganilishi O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyoning qadimgi tarixi haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.





Uchtepa yodgorligi ilk bor ilmiy tadqiqotchilar e'tiboriga tushganidan buyon ko'plab arxeologik qazilmalar va ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu yodgorlikning joylashgan geografik hududi, uni tashkil etgan arxitektura qoldiqlari va qzilmalar natijasida topilgan moddiy madaniyat obyektlari uning qadimgi davrlarga oid ekanligini tasdiqlaydi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida ushbu hududda qadimda odamlar istiqomat qilgani, ularning turmush tarzi va hunarmandchilik faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar olingan. Yodgorlikdan topilgan sopol buyumlar, tangalar, qurilish materiallari va boshqa artefaktlar Uchtepaning tarixiy ahamiyatini yanada oshirgan.

2019-yil 4-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-sonli Qarorida tasdiqlanishicha, Farg'ona vodiysida hozirgi kunda antik davrga oid yodgorliklar 301 tani tashkil qiladi. Shulardan, Andijon viloyatida 190 ta, Namangan viloyatida 58 ta, Farg'ona viloyatida 53 ta ekanligi aniqlangan. Bular orasida Quva, Axsikent, Uchtepa, Mug'tepa va boshqa shu kabi yodgorliklarning tarixiy va madaniy qiymatini alohida qayd etish lozim.


Shu jihatlarni e'tiborga olgan holda mintaqa tarixini tadqiq etishda alohida o'ringa ega bo'lgan Uchtepa arxeologik yodgorliklarini o'rganish borasida hukumat doirasida qiziqish bildirilmoqda.

TADQIQOT

Uchtepa – Buluqmozor majmuasi Norin tumanidagi Uchtepa qishlog'ida Namangan – Xaqqulobod avtomagistral yo'lining chap soxilida joylashgan. Manzilgoh dengiz sathidan 419 m balandlikda, geografik jihatdan qulay joyda joylashgan. Hudud tabiiy iqlimi jihatidan keskin kontinentaldir. Shimol tomonidan Markaziy Tyan-Shandan boshlanuvchi Norin daryosi oqib o'tadi.

Yodgorlik joylashgan hududning janubidan Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo'lgan, Farg'ona tizmasining janubi-sharqiy va Oloy tizmasining shimoliy yon bag'irlaridan boshlanadigan Tor va Qorag'ulja daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladigan Qoradaryo oqib o'tgan. Bu daryolarga to'xtalib o'tishimizdan maqsad, aynan yodgorlik joylashgan qishloq har ikki daryoga ham chegaradosh. Shimolda Norin daryosi, janubda esa Qoradaryo. Aynan, yodgorlik joylashgan hududni ikki daryo oralig'i deb ham atash mumkin. Bu ikki daryolarning shu hudud atroflaridan o'tganligi qadimdan bu yerlik aholiga dehqonchilik qilish imkoniyatini bergan.

Uchtepa Buluqmozor majmuasida dastlabki tadqiqot ishlari 1963-yilda akademik A. Asqarov boshchiligida boshlangan. O'sha paytda tepalikning yoshini aniqlash maqsadida Uchtepa – 1 yodgorligida stratigrafik shurf qazilgan.





Shurfning yuqori qatlamlarida ilk o'rta asrlar davri, pastki quyi qatlamlaridan antik davriga tegishli sopol parchalari chiqa boshlagan. Shurf 2 m chuqurlikkacha qazilgan. Antik davr qatlamining yuqori qismidan qoramtir angobli sopol parchalari, uning quyi qatlamlaridan tiniq qizil angobli sopol parchalari uchratila boshlagan. Shurf materikkacha yetkazilmay, qazishma ishlarining uchinchi kuni qazishma ishlarining uchinchi kuni qazishma ishlarini to'xtatishga to'g'ri kelgan. Chunki, yodgorlikni shurflash shaxsiy tashabbus bo'lib, uni davom ettirishga katta mablag' sarflash zaruriyati va bunga davlat tomonidan rasmiy ruxsatnoma bo'lishini talab qilar edi [1. B – 14].


Dala tadqiqotlar davrida topilgan ashyoviy manbalari ya'ni kulolchilik mahsulotlari Uchtepa – 2 yodgorligini uch davrda, ya'ni ilk antik davr, so'ngi antik davr va ilk o'rta asrlarda hayot davom etganligidan dalolat bergan. Kishilarning kundalik hayotida ishlatadigan Uchtepa – 2 yodgorligidan topilgan sopol buyumlarni shakllari, vazifalariga qarab uch xil tipga bo'lishimiz mumkin. Masalan: dasturxon idishlar, oshxona idishlari, xo'jalik idishlari [2. B – 5].

Dasturxon idishlari asosan vazalardan iborat bo'lib, ular oliy tabaqa shaxslar, mehmonlar uchun dasturxon bezatishda, noz-ne'matlar va quruq-ho'l mevalar uchun ishlatilgan. Bu yerdan topilgan sopol idishlar bir butun va uchta idish fragmentlaridan iborat bo'lib, asosan konussimon shaklga ega. Idishlarning yuqori gardish qismi o'lchamlari 17-20 sm.ni tashkil etsa, ostki tag qismlari 8-10 sm.ni, balandligi esa 14-16 sm.ni tashkil qilgan. Barcha idishlar kulolchilik charxida tayyorlangan bo'lib, olovda pishirilishidan avval ichki va tashqi qismlari qizil bo'yoq bilan ranglangan. Idishlarning loyini tayyorlashda maydalangan qum qo'shilgan, loy to'q jigarrang tuproqdan tayyorlangan.

Oshxona idishlari asosan qozonlar va tog'oralardan iborat bo'lib, kishilarning kundalik hayotida oziq-ovqat ya'ni taomlar pishirishda va meva – sabzavotlardan taom tayyorlashda ishlatilgan. Qozonlarning shakliga va o'lchamiga qarab, doshqozon, oshqozon va kir qozon kabi turlari bo'lgan. Qozonning kichikrog'i dekchi deb atalgan [3. B – 149].

Uchtepa – 2 obyektidagi tog'oralar ikki xil shaklda uchraydi. Birinchisi – og'zi keng va ochiq, tanasi sferasimon va konussimon bo'lib, har ikkalasini ham tagdoni tekis yoki ovalsimon shaklda uchragan. Labi tik, ichiga yoki tashqariga qayrilgan, tagdoni qalin, og'ir qilib ishlangan. Xo'jalikda tog'oralarning funksional vazifasi keng. Ular asosan kulolchilik charxisiz qo'lda yasalgan.

Xo'jalik idishlari asosan xumlar, katta hajmdagi xurmachalar, ko'zalar va boshqalardan iborat bo'lgan. Xo'jalik idishlari kishilarning kundalik turmush tarzida g'alladon, yog'-moy, sut va go'sht mahsulotlarini saqlash uchun hamda





suv va sut mahsulotlarini tashish uchun ishlatishgan. Antik davr ko'zalarining sirti, bo'g'zining ichki qismi albatta, angoblangan. Ilk antik davr ko'zalari tiniq qizg'ish rangda angoblangan. Agar ko'zalar kulolchilik charxida yasalsa xushbichim bo'ladi va ichki sirtida charx izlari ko'zga tashlanadi. Ko'zalardan ko'proq uy-ro'zg'or va xo'jalik ishlarida foydalanishgan.

Xumlarni yasash jarayonida hayvon suyaklaridan tayyorlangan kulolchilik pichoqlari, dastakash, ya'ni yog'och taxtakachlar, dag'al mato parchalari yordamida ularning ichki va tashqi sirtini ishlash va pardozlash ishlari olib boriladi. Xumlarning bo'yi 1m dan kam bo'lmagani bois, ularni sekin aylanuvchi kulolchilik dastgohida tayyorlash ham mumkin emas.

O'sha kezlarda Uchtepa – 2 yodgorligida arxeologik shurf solish zarurati bo'lmagan. Ammo, uning saqlanish holati, yer sathidan 8-10 m balandligi, uning tepasida hech bir arxeologik artefaktlar, yoki biror narsaga ishora etuvchi belgining ko'zga tashlanmasligi, uni hukmdor mozorqo'rg'oni sifatida talqin etishni taqozo etar edi. Bunday yodgorlikda arxeologik qazishmalar boshlandimi, uni oxirigacha yetkazish kerak edi. Chunki, islomga qadar vafot etgan kishining hayotlik davrida jamiyatda tutgan mavqeyiga qarab ma'lum bir qism boyligi bilan ko'mish an'anaga aylangan bo'lib, buni hisobga olishlik arxeolog uchun zarur edi. Qazilma ishlari olib borilgan yodgorlik hamma kutgandek hukmdor qarorgohi emas, balki, antik davrga tegishli bo'lgan ibodatxona bo'lib chiqqan. Ibodatxona xarobalarini qazish jarayonida juda noyob topilmalar topilgan. Bular orasida, 40 dan ortiq olovga sig'inish altar o'choqlar, qurbonlik hayvonlarini so'yish uchun tayyorlangan 10 dan ortiq turli davrlarga oid muqaddas tosh pichoqlar, toshdan yasalgan bir necha xil turdagi sanam-ma'budalar, ko'plab otashparastlik bilan bog'liq diniy-kult ashyoviy dalillar, muqaddas xaoma ichimligini tayyorlashda ishlatiladigan tosh yorg'uchoqlar, minglab kulolchilik charxida prefessional yuksak darajada yasalgan nafis sopol idish parchalari, ayrim ibodatxona rohiblarining qabrlari, qabr skeletlari, bel qismidan temirdan yasalgan bel kamarining to'qalari, qurbonlik hayvonining suyak parchalari va ular yonidan temir pichoq va qabrga ovqat bilan qo'yilgan sopol idishlar, zardushtiylikda muqaddas hisoblangan kuchuklar qabri topilgan.

Tadqiqotlar jarayonida majmuadan topilgan qurbongohlar, ularning tavsifi, me'moriy yechimi bo'yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda. Quyida arxeologik izlanishlar davomida topilgan altar-o'choqlar va qurbongohlardan bir nechtasini tahlil qilish orqali umumiy ko'rinishni tiklashga urinib ko'rish mumkin. Masalan:





Birinchi raqam ostida tartiblangan altar-o'choq tepalikning o'rtasidan 1,5 m chuqurlikdan topilgan. Hozirgi davrgacha qurbongoh to'rtburchak shaklda saqlanib qolgan. Yaxshi ishlangan xomashyodan qurilganligiga qaramay, namlik va yerning sho'rlanishi, qurbongohning chegara devorlarining yemirilishiga olib kelgan. Saqlangan hajmi 40 x 50 sm bo'lib, ichki qismi toza oq rangli kullar bilan qoplangan.

1-mehrob o'chog'ining shimolida, yana bir doira shaklidagi qurbongoh topilgan. U №2 qurbongoh o'chog'i deb atalib, olovda yonib ketgan yon devorning diametri 45-50 sm bo'lgan. U yerning ichki qismidan yumshoq tuproq aralashgan kullar topilgan. №2 qurbongohi №1 qurbongohiga juda yaqin joylashgan. Uchinchi raqamli qurbongoh o'chog'i doira shaklida, diametri 30 x 30 sm, pastki qismidagi chegara devorlari olovda yonib ketgan va yangi pishirilgan g'isht holatiga kelib qolgan edi [3. B – 2]. Qurbongohning janubi-sharqiy burchagidan o'tkir toshlar ham topilgan.

Biz qazishma ishlarini olib borishdan avval tepalik ostida qadimiy hukmdorning qabri va o'sha davr an'analariga ko'ra unga qo'shib ko'milgan boyliklar bo'lsa kerak, deb taxmin qilgandik. Natijalar biz kutgandan ham a'lo bo'ldi – qo'lga kiritgan manbalarimizning ilmiy qimmatini va ahamiyatini beqiyos", deydi akademik A. Asqarov .

2017-yilda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hamda mamlakatni boshqaruv tizimida keskin tub o'zgarishlar yuz bergan, ilm-fanga e'tibor kuchaygan. Arxeologiya fanining shaxsan Respublika Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida sohada yangi tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Uchtepa qishlog'idagi arxeologik yodgorliklarni o'rganish ishlari qayta jonlandi. Sohani rivojlantirishda tinib-tinchimas A. Asqarov Respublika innovatsion rivojlanish vazirligining 2019-2020-yillar uchun e'lon qilinga tanlovda "Uchtepa arxeologik yodgorliklarini o'rganish va "Moviy osmon" ostidagi muzeyga ilmiy tayyorlash" mavzusida ilmiy-amaliy loyiha yutib olgan [4].

"Yuqori texnologiyalar laboratoriyasi" geofizika tadqiqotlari natijalarining arxeologik qazishmalar orqali ochib o'rganish maqsadida 2019-yil apreldan to oktabr oyi oxirigacha Uchtepa – 2 obyektida qazishmalar olib borilgan. Biroq o'rganilgan bu arxeologik obyekt mutlaqo galvirak madaniy qatlamlardan tashkil topgan bo'lib, geofizika izlanishlarida ko'rsatilgan qurilma qoldiqlarini to'liq reja asosida tiklashga imkon bo'lmadi [1. B – 17].

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Uchtepa arxeologik yodgorligi O'rta Osiyo madaniy merosining muhim obidalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar





natijasida ushbu yodgorligining shakllanishi, arxitektura xususiyatlari va tarixiy ahamiyati haqida muhim ma'lumotlar aniqlangan. Uchtepa qadimgi sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri bo'lib, turli davrlarda aholi punkti sifatida rivojlangan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan moddiy madaniyat yodgorliklari bu hududda yashagan xalqlarning hayot tarzi, diniy e'tiqodlari va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni yoritishga yordam beradi. Maqolada yodgorlikning ilmiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinib, uni yanada chuqur o'rganish va saqlab qolish muhimligi ta'kidlangan. Kelgusida Uchtepa yodgorligini kompleks ravishda tadqiq etish va uni turizm hamda madaniy merosni targ'ib qilish doirasida keng jamoatchilikka tanishtirish lozimligi xulosa sifatida ilgari surildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xtasinov D. Uchtepa Buluqmozor arxeologik yodgorligi tarixiy topografiyasi va uning tahlili. – T. 2020.
2. Raxmonov U. Uchtepa – 2 yodgorligi keramika mahsulotlarining klassifikatsiyasi // “Zamonaviy jahon tarixshunosligida Farg'ona vodiysi tarixi va madaniyatining yangi tadqiqotlari hamda yondashuvlari” mavzusida xalqaro ilmiy anjumani materiallari. – Namangan. 2024.
3. Maxsutaliyev J. Uchtepa – 2 arxeologik yodgorligidagi altar-o'choqlar// Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi. – T. 2023.
4. Asqarov A. Ichki va xalqaro turizmning “Uchtepa Buluqmozor” majmuasi arxeologik yodgorliklarini o'rganish va ularni “Moviy osmon” ostidagi muzeyga aylantirish. Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilishi 2019-2020-yillarga mo'ljallangan amaliy loyiha. – T. 2019.
5. <https://oyina.uz/uz/posts/9256>
6. <https://www.uzreport.news/culture/namanganda-zardushtiylik-davriga-oid-qadimiy-ibodatxona-topildi>

